

**TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI****Mordanova Maftuna Xolmo'min qizi****Mustanova Maftuna Abdumurotovna**

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari yoritib berilgan. Innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonida o'quvchilar, shuningdek, talabalar faolligini oshirishga va mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilimlarni chuqurroq egallashga xizmat qiladi. Maqolada ta'lim samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi samarali muloqotni shakllantirishdagi roli ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarga asoslangan holda pedagogik jarayonga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiyalar, pedagogik yondashuv, ta'lim tizimi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar, masofaviy ta'lim, o'quvchi faolligi

Аннотация: В данной статье раскрываются преимущества использования современных инновационных педагогических технологий в системе образования. Инновационные подходы способствуют повышению активности учащихся и студентов, развитию их самостоятельного мышления и более глубокому усвоению знаний. В статье рассматривается роль информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), интерактивных методов и инновационных решений в формировании эффективного взаимодействия между преподавателем и обучающимся. В исследовании представлены рекомендации по внедрению современных технологий в педагогический процесс на основе передового отечественного и зарубежного опыта.

Ключевые слова: Инновационные технологии, педагогический подход, система образования, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), интерактивные методы, дистанционное обучение, активность учащихся.

Abstract: This article explores the advantages of using modern innovative pedagogical technologies in the education system. Innovative approaches help increase student and learner engagement, develop independent thinking, and support deeper knowledge



Learning and Sustainable Innovation

acquisition. The article examines the role of information and communication technologies (ICT), interactive methods, and innovative tools in fostering effective interaction between teachers and students. The study offers recommendations for integrating modern technologies into the pedagogical process based on leading local and international experiences.

Key words: Innovative technologies, pedagogical approach, educational system, information and Communication Technologies (ICT), interactive methods, distance learning, student engagement.

XXI asrda jamiyatning barcha sohalarida bo'lgani kabi, ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Global raqobat, raqamli transformatsiya va bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida ta'limning sifatini oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarning afzalliklari, ularning ta'lim tizimidagi o'rni va ularni joriy etishdagi dolzarb masalalar tahlil qilinadi[8].

So'nggi yillarda ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, YuNESKO, OECD hamda mahalliy olimlar tomonidan ta'limda raqamlashtirish, interaktiv metodlar, AKT vositalari va masofaviy ta'lim tizimlarini joriy etish bo'yicha ilmiy maqolalar va hisobotlar e'lon qilingan. O'zbekistonda innovatsiyalar masalasi xozirgi kunda ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada davlat rahbarining sohaga doir farmon va qarorlari qabul qilindi[9].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – bu kompyuterlar, internet, raqamli qurilmalar, mobil ilovalar va interaktiv platformalar orqali axborot olish, uzatish va taqdim etish vositalaridir. Ta'limda AKT vositalaridan foydalanish bilim olish jarayonini tezlashtiradi, qulaylashtiradi va interaktiv muhit yaratadi. Uning ta'lim samaradorligiga ta'siri: o'quvchilarning faolligi oshadi, ular mustaqil izlanishga rag'batlanadi, individual yondashuv (personalizatsiya) uchun imkoniyat yaratiladi, ta'limning sifatini nazorat qilish osonlashadi – onlayn testlar, diagnostik platformalar, o'quv jarayonini moslashuvchan qilish: masofaviy va gibril ta'lim shakllari joriy etiladi, interaktiv vositalar (prezentatsiyalar, videodarslar, animatsiyalar) yordamida murakkab mavzularni oson tushunish mumkin. Shuningdek, AKT lar o'qituvchi uchun ham bir nechta afzalliklarga ega hisoblanadi. O'quvchilarning ishtirokini monitoring



qilish, dars tayyorlashda raqamli resurslardan foydalanish imkoniyati, vaqtni tejagan holatda avtomatik baholash kabilar shular jumlasidandir[6].

Statistik ma'lumotlar (dunyo va O'zbekiston tajribasi)

UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, AKTdan foydalanilgan darslarda o'quvchilar ishtiroki **30–40% yuqori** bo'ladi.

O'zbekistonda 2023-yilgi "Raqamli ta'lim konsepsiyasi"ga muvofiq, maktablarda AKT vositalari bilan jihozlangan sinflar soni oshmoqda.

AKT bilan boyitilgan darslarda **baholash natijalari o'rtacha 20–25% yaxshilanadi** (mahalliy tadqiqotlarga ko'ra).

Innovatsion pedagogik texnologiyalar o'qitish jarayonini interaktiv, shaxsga yo'naltirilgan va samarali qilish imkonini beradi. Innovatsiya tushunchasi jamiyatda turli xil talqinda va ko'rinishda qo'llaniladi. Tadqiqotchi N.Muslimovning fikricha, "Innovatsiya - aslida mavjud tizimning tashqi yoki ichki ko'rinishini o'zgartirishni ko'zda tutadigan faoliyat hisoblanadi". Ular o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali o'quvchilar turli elektron resurslardan foydalangan holda bilimlarni mustahkamlashlari, o'z ustida mustaqil ishlashlari mumkin. Masofaviy ta'lim esa ayniqsa pandemiya davrida o'zining zaruriyligini isbotladi[7].

Innovatsion yondashuvlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali muloqot o'rnatilishiga ham xizmat qiladi. Bunda o'qituvchining roli faqat bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish bilan birga, o'quvchilarning faolligi va motivatsiyasini ham kuchaytiradi.

Bugungi kunda taraqqiyotning eng rivojlanayotgan sohasi bu ta'lim hisoblanadi. Jamiyatimizdagi ta'limning asosi bo'lgan bilimning samaradorligini oshirish masalasi bevosita jamiyat uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, ta'lim jarayonida turli samarali vositalar va texnologiyalarni, metodlarni qo'llashga oid alohida katta ahamiyatga ega yondashuv talab etiladi. Globallashuv sharoitida innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Ularni joriy qilish samaradorlik va raqobatbardoshlikning kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan innovatsiyalar malakali mutaxassislar tayyorlashning barcha jabhalarida,



jumladan, ta'lim jarayonida o'sishni ta'minlamoqda desak maqsadga muvofiq bo'ladi[5].

Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'lim talablariga moslashish, o'quvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish va ta'lim sifatini oshirishda muhim vositadir. Ularning samarali joriy etilishi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, texnik infratuzilmaning yetarliligi va metodik yondashuvlarga bog'liq. Bundan tashqari dars jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa, dars mashg'uloti yanada qiziqarliroq, esda qolarli va mazmunli natijalar beradi. Kelgusida bu yo'nalishda izchil ish olib borish, tajriba almashish va ilmiy asoslangan metodikalardan foydalanish ta'lim sifatining yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018
2. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod – moliya. 2010.
3. N.Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot) Toshkent. 2003
4. O'.Q.Tolipov., M.Usmonboyeva. Yangi pedagogic texnologiyalarning tadbiiy asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2006
5. Xolova M, Amirqulova M. QUALIFIED TEACHER–EFFECTIVE LESSON ORGANIZER. InINTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2024 (Vol. 1, No. 12, pp. 285-289).
6. Xo'jamurodova, F., & Xolova, M. (2024). OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOSINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 11, pp. 63-66).
7. Shavkatovna, X. M. (2023). DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Academia Repository*, 4(10), 90-94.
8. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 494-498.
9. Saydulloyevich, Ochilov Y., and Xolova M. Shavkatovna. "Scientific Activity and Spiritual Heritage of Imam Ghazali." *European Scholar Journal*, vol. 3, no. 6, 10 Jun. 2022, pp. 19-22.